



ZAMONAVIY JAMIYATDA ISLOMNING MA'NAVIY-MA'RIFIY O'RNI

Xudoyorov Fayzullo Bozorovich

*Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti akademik litseyi
tarix fani o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv jarayonida yuzaga kelayotgan ma'naviy inqirozlar va ularni yengishda Islom dinining tutgan o'rni yoritiladi. Qur'oni karim, hadislar va zamonaviy diniy-ijtimoiy adabiyotlar asosida Islomning insonparvarlik, axloqiy poklik va ma'rifat targ'ibotchisi sifatidagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Islom dini, ma'naviyat, ma'rifat, qadriyatlar, axloq, jamiyat, ijtimoiy barqarorlik.

Bugungi kunda insoniyat ilgari guvoh bo'lmagan ma'naviy sinovlarga duch kelmoqda. Ommaviy madaniyatning biryoqlamaligi, axloqiy bo'shliqlar, individualizm va ruhiy izolyatsiya ko'plab jamiyatlarda ijtimoiy muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Shu munosabat bilan, insoniyatni ezgulikka, poklikka va axloqiy yetuklikka chorlovchi ilohiy manba – Islom dini bugungi kun uchun nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi jamiyatda ma'naviy inqirozlar, ayniqsa yoshlar orasida, axloqiy yo'nalishlarning susayishi bilan namoyon bo'lmoqda. Islom bu bo'shliqni to'ldiruvchi boy manbadir. Uning ta'limotlari zamonaviy pedagogika, psixologiya va ijtimoiy muvozanat yo'nalishlarida keng qo'llanilishi mumkin.

Zamonaviy jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun ma'naviy asoslarning mustahkam bo'lishi zarur. Ijtimoiy hayotda yuzaga kelayotgan axloqiy bo'shliqlar, insoniylikka zid xatti-harakatlar, ayniqsa yoshlar orasida ruhiy tushkunlikning



kuchayishi diniy-ma'naviy tarbiya masalasini dolzarb qiladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, Islom dini insoniyatni ruhiy yetuklik, axloqiy poklik va o'zaro hurmatga chorlovchi yo'l sifatida qayta baholanishi kerak.

Islom dini jamiyatni axloqiy jihatdan barkamol qilishga qaratilgan ko'plab qoidalarni o'zida mujassam etgan. Uning asosiy g'oyasi – adolat, to'g'rilik, mehr-oqibat va halollikni inson hayotiga singdirishdir. Qur'oni karimda Alloh taolo adolat va yaxshilikni targ'ib etgani, buzuvchilikdan tiyishni buyurgani dinning jamiyatdagi barqarorlikka qaratilganligini ko'rsatadi.

Bu yondashuv zamonaviy ijtimoiy tartiblar va inson huquqlariga mos keladi. Masalan, insonlar o'rtasidagi tenglik, hurmat, yovuzlikdan yiroqlik tamoyillari Islomda asosiy qadriyat sifatida qaraladi.

Inson tanasi uchun jon qanchalik muhim bo'lsa, uning ma'naviyati, ruhiyatining teranligi uchun ilm shunchalik ahamiyatli sanaladi. Inson ilm egallash yo'lidan yursa yuksaladi, aks holda tubanlikka, johillikka yuz tutadi. Bu foni dunyoda ilmdan bebahra qalblar jonsiz jasadga o'xshaydi. Alloh bu olamni cheksiz ilmu hikmat bilan yaratgan. Inson aql va tafakkur vositasida bu ilmlardan xabardor bo'ladi, moddiy va ma'naviy hayotda yuksaklikka ko'tariladi. Ilm inson tafakkuriga nur baxsh etadi. U shu nur orqali haqiqatni topadi. Ilm insonni doimo yuksak martabaga erishtiradi. Mana shuning uchun ham islom manbalari Qur'oni karim va hadislarda ilm-fanni egallash, ma'rifatli bo'lish juda katta savobli ish ekani qayta-qayta ta'kidlanadi. Hadisda beshikdan to qabrgacha ilm izlash lozimligini qayd qilinishining o'zi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Qur'oni karimda: “Alloh sizlardan iymon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja (martaba)larga ko'tarur”, (Mujodala surasi, 11-oyat) deyilishi negizida ilmli zotlar va unga intilganlar jamiyatda yuksak mavqe va hurmatga sazovor bo'lishlariga ishoradir.

Qur'oni karim insoniyatga ilm orqali ikki dunyo saodatiga erishish yo'lini ko'rsatdi. U ilmning afzalliklari haqida insonlarga habar beradi va ularni ilm



olishga chorlaydi. Ilm buyuk ne'mat ekanligi va bu ne'mat olamning gultoji bo'lgan insonga berilgan. Ilm najot yo'li ekanligi habar qilingan. Alloh odamga bergan ilm orqali har narsaning siru asrorini bildirgan va barcha mahluqot ustidan hokim qilgan.

Islom dinida nafaqat ilm o'rganish, balki ilm talab qilish ham har bir kishi uchun farz ekanligi ta'kidlangan. Alloh taolo o'zining payg'ambari Muhammad alayhissalomga birinchi vahy nozil qilganida ham "Iqro" ya'ni "O'qi" deb buyuradi va ilk vahiy "Alaq" surasining dastlabki oyatlari bo'lib, unda ham inson o'qishga buyuriladi. (*"(Ey, Muhammad, butun borliqni) yaratgan zot bo'lmish Rabbingiz nomi bilan o'qing! U insonni laxta qondan yaratdi. O'qing! Rabbingiz esa karamli zotdir. U insonga qalam bilan (yozishni) o'rgatgan zotdir. U insonga bilmagan narsalarini o'rgatdi"*). Shu jumladan Qur'oni Karimda ham ilm so'zi "alima" fe'li shaklida turli ma'nolarda 811 o'rinda takrorlanishi ilmning o'rni qanchalik yuqori ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, Qur'oni Karimning Mujodala surasi, 11-oyatida *"Alloh sizlardan iymon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja (martaba)larga ko'tarur"* deyilgan. Bundan tashqari Alloh taoloning Qur'oni Karimida xalqi va jamiyati uchun foydali ilm bilan mashg'ul bo'lgan bandalariga va'dasi bor: *"Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo'lurmidi?!"* (Zumar, 9-oyat) Albatta teng bo'lmaydilar. Eng muhimi Toha surasi 114-oyatida aytilganidek Yaratgandan doimo *"...Robbim, ilmimni ziyoda qil"* deya so'rash zarur.

Zamonaviy ta'limda diniy-ma'naviy tarbiyaning uyg'unligi yosh avlodni barkamol qilib yetishtirishda muhim omildir. Shu bois, ta'lim tizimida ham Islom ma'naviyati asosida yondashuv kuchaymoqda⁷. Ko'rinadiki, Islom e'tiqodi avval boshdanoq insonni o'qib-o'rganishga, ilm vositasi bilan dunyoni anglab yetishiga targ'ib etadi.

Qur'oni karim inson hayotining barcha jabhalarini o'zida qamrab olgan kitobdir. Ilm yo'lini tutgan inson eng sharaflı yo'lni tanlagan bo'ladi.



Muhammad alayhissalomning “Ilm olish har bir muslim va muslima uchun farzdir” degan hadislarida islomning ilmga bo‘lgan yuksak e’tiboridan dalolat beradi. Yana bir hadisda: “Insonlar yo o‘rgatuvchi yoki o‘rganuvchilarga bo‘linadi. Bundan boshqalari esa arzimasdir”, deb ta’kidlansa, boshqa bir hadisda: “Insonlar o‘likdir, faqat ilm ahligina tirikdir”, deb bu dunyoda faqat ilm sohiblarigina haqiqatga intilganliklari tufayli tirik ekanliklari aytiladi.

Islom bu faqat aqida emas, avvalo, ma’rifat, ilmdir. Islom tarixiga nazar tashlasak, Muhammad Payg‘ambar alayhissalomgacha bo‘lgan davr arablarda “johiliya” davri deb ataladi. “Johiliya” nodonlik, bilimsizlik davri degani. Islom ana shu nodonlik davri o‘rniga keng ma’noda ma’rifat, madaniyat vujudga keltirdi, ilm-fan, falsafa, adabiyot va san’atni rivojlantirdi, o‘ziga xos ma’naviyat va ma’rifatni yaratdi.

Islomda ma’rifatga bo‘lgan munosabatni quyidagi hadislarni keltirish bilan cheklanishni lozim topdik:

“Ilm olish yo‘lida sarflangan bir soat ibodat bilan o‘tkazilgan bir kechadan ko‘ra xayrliroqdir”.

“Ilm yo‘lida sarflangan bir kun uch oy ro‘za tutishdan afzalroqdir”. Bu hadislarida ilm yo‘lida sarflangan vaqt eng qadrli ekanligi ta’kidlanmoqda.

Payg‘ambar (s.a.v.) “Ilm o‘rgatgan kishiga ta’zimda bo‘ling va izzat-ikrom ko‘rsating”, deb ilm yo‘lida harakat qilganlarni qadrlash kerakligini uqtiradilar. Xalqimiz bejiz “Ustoz otang kabi ulug‘dir” deb aytmagan.

“Olimning uyquasi johilning ibodatidan afzaldir”, chunki uning uyquasi ham ibodatning bir turi sanaladi, sababi olim ilmini davom ettirish uchun charchoqlardan forig‘ bo‘lish maqsadida uxlaydi.

“Sadaqaning eng xayrlisi o‘zgaga ilm o‘rgatmoqlikdir”, “Dindoshiga ilm o‘rgatish yil bo‘yi o‘qilgan nafl namozidan ko‘ra afzalroqdir” kabi hadislarida inson ilmni olimlardan o‘rganishi va o‘zi ham bilganini boshqalarga o‘rgatishi lozimligi ta’kidlangan.



“Ilm o‘rganing, ilm o‘rgangan haqni nohaqdan ajratadi. Ilm jannat yo‘lini yoritadi. Ilm insonga cho‘lda yo‘ldosh, yolg‘izlikda hamroh, kimsasizlikda jondosh do‘st bo‘ladi”, “Ilm insonlarni saodatga eltadi, falokatdan qutqaradi, do‘stlar orasini ziynatlaydi, dushmanga qarshi qalqon bo‘ladi”.

Hadislarda har bir o‘rganilgan ilmni qalblarga jo aylash kerakligi va unutish lozim emasligiga ham ahamiyat berilgan. Ilmni unutgan kishi jaholatga yuz tutishligi va ilm hazinasini yo‘qotishligi “Unutish ilmning ofatidir” hadisida o‘z ifodasini topgan

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, Islom ilm-ma‘rifat dini va ayni paytda barcha insonlarni dunyo sir-asrorlarini bilishga, ya‘niki egallashga va yuksak ma‘naviylikka chorlovchi din ekanligi bilan alohida ahamiyatga egadir.

Qur‘oni karim va Payg‘ambar alayhissalom hadislarining eng muhim va salmoqli qismi kishilarda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishga qaratilganligidir. Ulardagi ota-onaga, ilmga munosabat, sabr-bardosh, shukronalikka da‘vat, o‘zaro mehr, mehmondo‘stlik, yetimparvarlik, vafo va sadoqat, halol luqmani sharaflash, kamtarlik, kamsuqumlilik, samimiyat, rostgo‘ylik va boshqa chin insoniylik xislatlarining birinchi o‘ringa qo‘yilishi barcha insoniyat uchun bebaho umuminsoniy ma‘naviy boylik tizimini tashkil etadi.

Jismoniy va ma‘naviy poklikka intilish islom axloqining, Rasululloh hadislarining yana bir muhim mavzu yo‘nalishidir. Tahorat, g‘usl masalalari tashqi ozodalik talablari bo‘lsa, haromdan, yolg‘on so‘z, g‘iybat, tuhmat, zinokorlik, o‘zga haqqiga xiyonat, nohaqlik va zulmga yo‘l qo‘ymaslik, ulardan qat‘iy saqlanish ichki, ma‘naviy poklikka oid talablardir. Bularning hammasi Qur‘oni karim hamda Rasululloh (s.a.v.) hadislarida va ularga asoslangan shariat ko‘rsatmalarida juda qat‘iy qilib qo‘yilgan.

Xullas, Islom dini zamonaviy jamiyatda faqatgina ibodat tizimi emas, balki yuksak axloqiy-ruhiy tizim sifatida qaralishi lozim. Undagi insonparvarlik, adolat



va bilimga da'vat tamoyillari bugungi globallashuv muhitida barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, bu qadriyatlarni targ'ib etish, ta'lim-tarbiya tizimiga chuqur joriy etish davr talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qur'oni karim. Tarjimasi va tafsiri. – T.: Hilol nashriyoti, 2016.
2. Imom Buxoriy. “Sahih al-Buxoriy” hadislar to'plami. – T.: Movarounnahr, 2005.
3. Imom Termiziy. “Sunan at-Termiziy”. – T.: Hilol, 2006.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
5. Ziyodov A.X. Islom va zamonaviylik. – T.: O'zbekiston, 2015.
6. Komilov N. Tasavvuf va axloq. – T.: Ma'naviyat, 2011.
7. G'oyibnazarov A. Diniy-ma'naviy tarbiya asoslari. – T.: O'zbekiston, 2017.